

SMTI'da Jazoir elchisi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi



Shu yilning 28 martida SMTI direktori Eldor Aripov Jazoirning O'zbekistondagi Favqulodda va Muxtor Elchisi etib tayinlangan Bumediye Gennad bilan uchrashdi

Suhbat chog'ida O'zbekiston-Jazoir munosabatlarning holati va uni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. O'zbekiston va Jazoirning tahliliy markazlari o'rtasidagi hamkorlikni faollashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.



Shu nuqtai nazardan, mehmon O‘zbekiston va Jazoirning yetakchi “aql markazlari” o‘rtasida bir kun avval o‘tkazilgan onlayn konferensiyani yuqori baholadi. Uning so‘zlariga ko‘ra, “tadbir ikki davlat ekspertlari o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish yo‘lidagi birinchi muhim qadam bo‘ldi. Bunday uchrashuvlar ekspertlar darajasida g‘oya va takliflar ishlab chiqish orqali ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishga yordam beradi”.

Uchrashuv yakunlari bo‘yicha tomonlar O‘zbekiston-Jazoir hamkorligining o‘zaro manfaatli barcha yo‘nalishlari bo‘yicha muntazam uchrashuvlar o‘tkazishdan manfaatdor ekanliklarini bildirdilar.